

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI MAKTAB FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING BA'ZI MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchisini maktab faoliyatiga tayyorlash, jumladan, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida yetishib chiqayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchisiga cholg'u ijrochiligi bo'yicha bilim va tajribani shakllantirib borish usullari, musiqiy tahlil va sintez qobiliyatiga ega bo'lishligini ta'minlash bayon etilgan. Musiqiy-cholg'u tahlili — musiqani o'rganish usuli ekanligi, cholg'u asboblarini, ulardan foydalanish va musiqa asaridagi o'zaro ta'sirlarni batafsil o'rganishga qaratilgan xususida ham fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa ta'limi, cholg'u ijrochiligi, musiqiy-cholg'u tahlili, sintez, musiqa asari.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ К ШКОЛЬНОЙ РАБОТЕ

Аннотация. В статье описывается подготовка будущих учителей музыки к школьной деятельности, в том числе методы формирования знаний и опыта инструментального исполнительства у будущих учителей музыки, в настоящее время получающих высшее образование, а также обеспечение у них способности анализировать и синтезировать музыку. Также было высказано предположение, что музыкально-инструментальный анализ — это метод изучения музыки, сосредоточенный на детальном изучении музыкальных инструментов, их использовании и их взаимодействии в музыкальном произведении.

Ключевые слова: Музыкальное образование, инструментальное исполнительство, музыкально-инструментальный анализ, синтез, музыкальное произведение.

SOME QUESTIONS ON PREPARING A FUTURE MUSIC TEACHER FOR SCHOOL WORK

Abstract. The article describes the preparation of future music teachers for school activities, including methods for developing knowledge and experience of instrumental performance in future music teachers currently receiving higher education, as well as ensuring their ability to analyze and synthesize music. It has also been suggested that musical instrumental analysis is a method of studying music that focuses on the detailed study of musical instruments, their use, and their interactions in a piece of music.

Key words: Music education, instrumental performance, musical and instrumental analysis, synthesis, musical work.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimini erkinlashtirish, o'quvchi-yoshlarni bilim olishlari uchun ta'lim tizimining barcha shakllarini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining bir qator qaror va farmonlar e'lon qilindiki, bular ayna paytda O'zbekistonni ta'lim sohasidagi xalqaro reytingini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida [1] "2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash"ga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan. Jumlada, mazkur qarorning 4-ilovasida Milliy musiqa cholg'ularini ommalashtirish, 3v-ilovasida esa "So'g'diyona" O'zbek davlat xalq cholg'ulari kamer orkestri, Davlat akademik xalq cholg'ulari orkestri, "O'zbekiston", "Navbahor", "Lazgi", "Navro'z" ashula va raqs ansamblarining konsert-tomosha tadbirlarini o'tkazish rejasi belgilangan. Shuningdek, ma'maviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining badiiy saviyasi va mazmundorligini oshirish, ko'rik-tanlovlarni o'tkazish qayd qilib o'tilgan. Shu o'rinda, Oliy o'quv yurtlari musiqa ta'limi yo'nalishlarida o'zbek xalq cholg'u asboblari ansambllarida faoliyat yuritadigan yuqori malakali kadrlarni tayorlash dolzarb masalalardan biri sifatida qaralishi ham nazarda tutilgan, albatta

Asosiy qism. Uzluksiz ta'lim tizimining bugungi kundagi vazifasi musiqa sohasida ta'lim oluvchilarni kun-sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Musiqa san'at yo'nalishidagi ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, aniq vazifalarni qo'ygan holda, dars jarayonida qo'llaniladigan usul va vositalarni to'g'ri tanlash orqali ta'lim olayotgan shaxsning intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish darkor. Musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga yangicha munosabat yurtboshimiz asarlari va ko'rsatmalarida, hukumatimizning qarorlari hamda tegishli me'yoriy hujjatlarida o'z aksini topmoqda. Bu sohada. shuningdek, xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida, ilmiy-tadqiqot ishlarni amalga oshirayotga olimlar izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

Musiqaning inson ruhiyotiga ijobiy ta'siri ko'rsatishi haqida gap ketganda aytish mumkinki, jaqmiyaqtda yashab kelayotgan har bir inson kun davomida hech bo'lmaganda kichik bir musiqiy sadolarni eshtib zavqlanadi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek "Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi".

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarining "Musiqiy ta'lim" yo'nalishi o'quv rejasida o'qitiladigan fanlar bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchisida musiqadan zaruriy bilim, amaliy malakalar doirasini rivojlantirish, keyingi ish faoliyatida iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berishga oid maktab musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini amalda bajarish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur oliy maqsad va vazifani amalga oshirishda «Musiqa» fanlariga ijtimoiy rivojlantiruvchi omil sifatida qarash, muammolarni hal etishda keng o'qituvchilar ijodiga tayanish, musiqa o'qitish uslubiyotini har tomonlama ilmiy-metodik izlanish natijalari va ilg'or tajribalar asosida takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Oxirgi yillarda musiqa o'qitishning zamonaviy innovatsion metodlarini qo'llash va uni uzluksiz ta'lim tizimida keng joriy etishga bo'lgan talab ancha kuchaydi. Bu ayniqsa, musiqa o'qituvchilari malakasini oshirish, oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, yetakchi musiqa o'qituvchilarining darslari mazmunida o'z ifodasini ko'rsatmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo bu jarayon hali musiqa ta'limiga mas'ul bo'lgan barcha muassasalarda o'z aksini topgan deb aytish biroz qiyin. Shunday bo'lsada, bugungi kunda aynan ana shu uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishdagi asosiy hujjat sifatida muhim prinsiplarni o'zida to'la-to'kis namoyon etib kelmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida yetishib chiqayotgan musiqa mutaxassisi o'qituvchilariga qo'yilayotgan umumiy talablardan biri – bu bo'lajak musiqa o'qituvchisiga cholg'u ijrochiligi bo'yicha bilim va tajribani shakllantirib borish hisoblanadi. Jumladan, musiqiy tahlil va sintez qobiliyatiga ega bo'lishligini ta'minlash.

Musiqiy-cholg'u tahlili — musiqani o'rganish usuli bo'lib, cholg'u asboblarni, ulardan foydalanish va musiqa asaridagi o'zaro ta'sirlarni batafsil o'rganishga qaratilgan. Bu, chog'u asboblari musiqaning umumiy ifodasiga qanday hissa qo'shishini, ular turli musiqiy uslublarda qanday qo'llanilishini va asarning hissiy ta'siriga qanday ta'sir qilishini tushunishga imkon beradi.

Cholg'u asbobi yordamida musiqa asarini tahlil qilish - bu musiqa asaridagi butun ob'ektni har tomonlama o'rganish maqsadida uning tarkibiy qismlariga (shakli, ifoda vositalari, xususiyatlari yoki tovushlarning o'zaro munosabatlarini) ajratishni o'z ichiga olgan fikrlash usulidir. Sintez esa— musiqiy matndagi obrazlarni fikrlash usuli bo'lib, u musiqiy ob'yektning avvaldan aniqlangan qismlarini bir butunlikka birlashtirishni nazarda tutadi.

Musiqiy sintez, bu asardagi asosiy komponentlardan yangi tovushlarni yaratish yoki mavjudlarini o'zgartirishni o'z ichiga oladi, bu musiqachilar va ovoz go'zalliliga noyob tembrlar, tovushli teksturalarni yaratishga imkon beradi.

Shunday qilib, ijro tahlili musiqiy tahlil turlaridan biridir. Uning nomi uning manzilini aniq ko'rsatadi: u ijrochilar uchun mo'ljallangan va, qoida tariqasida, ijrochilarning o'zlari tomonidan ishlab chiqariladi. Asarning umumiy tahliliga qo'shimcha ravishda ishlash tahlilining maqsadi ishlashdagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini topishdir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisiga asarning ijro tahlili haqida bilimlar berish bir qator omillarga alohida e'tibor bilan yondashish kerak. Jumladan:

1. Muallif va asar haqidagi ma'lumotlarni o'rganish. Asarni kim yozgan, bastakor qaysi davrda yashab ijod qilgan, asarning yaratilish tarixi qanday? Bu savollarga berilgan javoblar tahlil qilinayotgan

asarning nafaqat bastakor ijodida, balki turli asrlardagi boshqa kompozitorlarning bir qator shunga o'xshash asarlarida tutgan o'rnini aniqlashga, shuningdek, bu asarning (agar musiqa san'ati durdonasi haqida gapiradigan bo'lsak) butun musiqa madaniyati rivojida ahamiyatini tushunishga imkon beradi.

2. Asarning janrini aniqlash (agar dastlab notalarda ko'rsatilmagan bo'lsa) va uning xarakterli belgilari bilan tanishish. O'rganilayotgan asar qaysi musiqa turiga tegishli ekanligini bilish cholg'u ijrochiligi uchun juda muhimdir. Bu musiqa qaysi holatda va qayerda ijro etilgani, kim uchun mo'ljallanganligi, kim uchun ijro etilgani va qanday tinglovchilar uchun mo'ljallanganligini tushunishning kalitidir.

3. Asarning tuzilishi va shaklini aniqlash. Musiqa asarining tuzilishi tinglovchida yaxlit va mantiqiy idrokni shakllantiradigan uning qismlarini tartibga solish usulidir. U iboralar, davriyalar, bo'limlar va shakllar kabi turli elementlarni o'z ichiga oladi, ular birgalikda musiqiy shaklni yaratadilar.

Muayyan shaklni qurish qonuniyatlarini bilish musiqiy tovushlarning cheksiz oqimini mantiqiy ravishda ajratish imkonini beradi. Shulardan kelib chiqib aytish o'rinliki, cholg'u asbobida ijro etish uchun tanlangan musiqa asarining tuzulishi va shakli aniqlanishi, iboralarni ijro paytida qayerga qo'yish kerakligini bilish va tushunish kerak.

4. Musiqiy ifoda vositalarini batafsil tahlil qilish. Bu jarayon cholg'u ijrochiligida alohida ahamiyatli bo'lib bo'ljajak o'qituvchi quyidagilar haqida yetarlicha bilimga ega bo'lishi kerak:

- turli balandlikdagi tovushlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi haqida bilimga ega bo'lishi;
- tonallik (tovush balandligini tashkil etish printsiplari hamda pardalar tuzilmasi, uyg'unlik va tartib haqida bilimga ega bo'lishi;
- garmoniya (tor ma'noda - tovushlarning konsonans va akkordlarga birikmasi) haqida bilimga ega bo'lishi;
- ohang (tovushlarning monofonik ketma-ketligi) haqida bilimga ega bo'lishi;
- musiqiy shakl (musiqiy to'qima, musiqiy tovush kompozitsiyasi) haqida bilimga ega bo'lishi;
- ritm (musiqiy davomiylik va pauzalar o'rtasidagi munosabat) haqida bilimga ega bo'lishi;
- musiqa ijrosi tezligi haqida bilimga ega bo'lishi;
- dinamika (ovoz balandligi) haqida bilimga ega bo'lishi kerak.

Bular bastakor nimani ifodalamoqchi ekanligini, o'z g'oyasini amalga oshirish uchun qanday hissiyot va his-tuyg'ularni yetkazmoqchiligini oydinlashtiradi. Bu bosqichda asar ustida bajarilgan ish natijasi men ijro etmoqchi bo'lgan musiqaning obrazli mazmunini yoki boshqacha aytganda, ifodali-semantik mohiyatini anglash bo'lishi kerak. Bu bosqichda asar ustida bajarilgan ish natijasi cholg'uchida ijro etmoqchi bo'lgan musiqaning obrazli mazmunini yoki boshqacha aytganda, ifodali mazmun-mohiyatini tushunishga jndaydi.

5. Ishlash vazifalari va qiyinchiliklarini aniqlash. Ijrochining asosiy sa'y-harakatlari bastakorning niyatlarini imkon qadar to'liq ochib berishga qaratilgan bo'lishi kerak. Har qanday ijrochining pirovard maqsadi esa asarga singdirilgan kompozitor g'oyasini tinglovchiga o'ta aniqlik bilan yetkazishdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun cholg'uchiga iboralar, ovoz chiqarish, zarblar, artikulyatsiya, barmoqlar, agogikalar, tempo-ritmik profil, kulminatsiya va ularni tayyorlash zonalarini taqsimlash va tushunish, dinamikani tafsiloti, ijro hajmini tanlashni o'rgatish kerak.

6. Asarning turli nashrlarini ko'rib chiqish. Ko'pincha asar faqat mualliflik versiyasida emas, balki bir nechta nashr (tahrir)larda mavjud bo'ladi. Tahrirlovchilar ko'pincha tajribali ijrochilar va yoki yaxshi bilimga ega va eng muhimi, uslub tuyg'usiga ega o'qituvchilardir. Tahririyat ko'rsatmalari asarning ijro rejasini tuzatadi va uning ovozli ko'rinishini modellashtiradi, bu esa bastakorning qarashlaridan farq qilishi mumkin. Ba'zida nashrlar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, bu, albatta, ovoz sifat darajasiga ta'sir qiladi. Ijro etish uchun eng yaxshi variantni tanlashda har birini alohida tahlil qilib, nashr (tahrir)larni solishtirish kerakligi haqida talabga bilim berish ijobiy maqsadga chorlaydi.

7. Asarning turli ijro talqinlari bilan tanishtirish. Boshqa musiqachilar ijrosidagi asarni tinglash juda zarur va foydali mashg'ulotdir. Albatta, yaxshi ijro etilgan kompozitsiyani tinglash ma'qul. Ammo ma'lum miqdorda hushyorlik kerak. Bu faoliyatda uni haddan tashqari oshirib yubormaslik kerak, chunki turli xil talqinlar bilan tanishish musiqachi (ayniqsa yangi boshlovchi) uchun boshqa birovning ijrosiga ko'nikish va musiqani o'z tushunishi va eshitishini izlash o'rniga ko'r-ko'rona taqlid qilishni boshlashi uchun xavf tug'diradi.

Xulosa. musiqa durdonalarini idrok etishda chegara yo'q. Har safar biron bir asarni chuqur o'rganganganda, uning ma'nosining yangi qirralari ochiladi. Ammo amalga oshirilgan dastlabki tahliliy ishlar sholg'uchiga musiqiy matnning ovozli "jonlanishi" va bastakor g'oyasini ochishga to'g'ri yondashishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar**207**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada chora-tadbirlari // <https://www.lex.uz/docs/3171590> //
2. "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qaror Toshkent 2017 yil 17-noyabr
3. Saipova D.YU. Musiqiy, nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish. (Boshlang'ich sinflar misolida) T. 2007 y.
4. Usmonboyeva M., G.Anorqulova, G.Shamaripxodjayeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015 yil.
5. Ismoilova M.E. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'anviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish. T. 2006 y.
6. Ruziyev D.Yu. Ansambl bilan ishlash uslubiyoti. Darslik. Buxoro, "Durdona" nashriyoti, 2021.